

Qishqishchiliklari! Qoshq mag'ozasi haftado'konini bekitmoqchi bo'ldi. Dera zalarni yopayotib ichkarida yurgan odamga ko'zi tushdi. U shkafdan bir funtcha sariyog' oldida, shlyapasiga soldi. "Bir boplayki, o'g'irlilik qilganiga pushaymon bo'lsin", deya ahd qildi mudir.

- Ha, Set?- dedi u eshikni ohib.

Set eshik tutqichini ushlab, tashqariga chiqishga shaylanib turardi.

- Qani, mundoq o'tir-chi, borasan-da uyingga. Shunday sovuqda issiq xonaga ne yetsin.

Set nima qilishini bilmay qoldi. Juftakni rostlamoqchi bo'lgandi, mudir yelkasidan tutib, pechka yoniga - yog' solingan bo'chkalar orasiga o'tqizib qo'ydi.

- Xo'-o'sh, endi do'konni ozgina isitamiz,- dedi u va pechkaning eshikchasini ohib, tarasha qaladi.- Yaxshilab isinib olmasang, sovqotib qolasan.

Set nogoh yog'ning eriyotganini sezib, o'rnidan irg'ib turdi.

- Hali isiganing yo'q, Set,- dedi mudir beparvo.- O'tir, gurung qilamiz.

- Vux, juda isib ketdim...

- O'tir bunday, shoshilib qayoqqa borasan.

- Mollarga qarashim... Yem solishim kerak, axir!..

- Shoshma, Set, mollarga boshqalar qarar. Bechora Set! U nima qilishini bilmasdi. Sariyog'

erib, ko'z va yuzlariga oqib tusha boshladi. Mudir esa hech narsa ko'rмагандек gap sotar, pechkaga tarasha tiqardi.

- Ajoyib oqshom bo'lди-da!..- dedi u.- Set, nega shlyapangni yechmaysan? Isib ketibsan-ku. Ke, shlyapangni ilib qo'yay.

- Yo'-o'q!- deya qichqirib yubordi Set.- Yo'q! Men ketishim kerak! Meni chiqarib yuboring. Mazam qochyap-ti... Ketay, axir!..

Yog' boyoqishning bo'yniga yetib kelgan, hatto tuflisi ichiga sizib tushmoqda edi. U bamisoli yog' to'lg'izilgan tog'orada cho'milardi.

- Nima derdim,- dedi mudir istehzoli jilma-yib,- ketmoqchi bo'lsang, mayli, ruxsat.

Set o'rnidan turgach, qo'shimcha qildi:

- Set, xafa bo'lma, ozgina ermak qildim-vaqtichog'lik uchun. Shu bois sendan yog' puli olmayman. Xayr. Kep-tur.

Xato o'xshatish

Do'stim ikkimiz Nuy-York yaqinidagi Salomanka bekatiga sal kechikib yetib keldik. Bekat sahnida yo'lov-chilar g'uj-g'uj, odamga liq to'la poezdga chiqib olish uchun yelib-yugurishardi.

"Mendek mashhur yozuvchini ham shunday qisishadimi odamlar", deya o'ylab, kassaga zo'rg'a yaqinlashdim. Chip-tafurush yigitdan xos vagonga ikkita chipta so'radir. U: "Chipta yo'q", deb, tuynukni qarsillatiб yopdi. Qo'yarmidim, bekat boshlig'ini topib, undan xos vagondan joy olib berishni iltimos qildim.

- Joy yo'q! Meni bezovta qilmang! B'T"U orqasiga o'girildi. Bu qilig'i kaminaga og'ir botdi.

- Men bilan bu ohangda gaplashishlariga sabab shuki,- dedim do'stimga o'zimni oqlamoqchi bo'lib,- ular meni tanishmayapti.

Tanimasni esa siylamas deydilar. Agar Mark Tvenligimni bilishganida...

- Tushingni suvgga ayt,- dedi do'stim gapimni bo'lib.- O'ylaysanki, agar ular kimligingni bilishsa, poezddan senga yo'q joyni topib berishadi.

Do'stimmning so'zлari o'lganning ustiga tepgan bo'lди. Yana o'sha boshliq huzuriga kirdim va o'zimni tanishtirdim:

- Men - Mark Tven...

- Sizga aytdim-ku,- deya gapimni bo'lди u,- boshqa bezovta qilmang!

Boshliq yana orqasiga o'tirildi. Najot kutib atrofga qaradim va bir hammol meni kuzatib turganini sezdim. U vagon og'asining qulog'iga nimadir deb shivirlardi. Vagon og'asi hovliqib menga yaqinlashdi.

- Yaxshimisiz? - dedi u takalluf bilan.

- Poezdga chiqmoqchimisiz?

- Ha,- dedim xursand bo'lib.- Lekin joy masalasi...

- E, u masala ham, o'ziyam zo'ridan. Tom, buyoqqa kel,- deya hammolni chaqirdi u.

- Bu kishining jomadonlarini bizning vagonga olib bor. Qani, ketdik.

Tom bizni xos bo'lмага joylashtirib, dedi:

- Agar xizmat bo'lsa, bemalol.

- Xo'-o'sh, chiroq xira ekan, shuni boshqasiga almashtirsang,- dedim.

- Bir og'iz so'zingiz,- dedi hammol ta'zim bilan. Hammol chiqib ketgach, men hamrohimga g'o'daydim:

- Xo'sh, do'stim, endi nima deysan? Mening Mark Tvenligimni bilgach, ularning muomalasi o'zgardimi, a? Mark Tvenning obro'yini ko'rib qo'y!

Shunday deyishim bilan bo'lma eshigi oldida hammol paydo bo'lди.

- Bilasizmi,- dedi u yaltoqlanib,- ko'chadayoq ko'-zimga issiq ko'ringandingiz, janob Makkellan.

- Hm....- dedim yerga qarab.

Hammol kaminaning qo'lidan tangani oldi-da, ko'zdan g'oyib bo'lди.

- U seni Nyu-York hokimi janob Makkellan deb o'yladi, shekilli,- dedi do'stim qotib-qotib kular-kan.- "Ko'chadayoq ko'zimga issiq ko'ringandingiz, janob Makkellan". Xo-xo-xo!..